



Received: May 9, 2023
Accepted: June 23, 2023
Available online: June 25, 2023

Dilnoza Aminova

Philologiya fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti
Toshkent, O'zbekiston

TURLI MADANIYATGA MANSUB JURNALISTLARNING IJODIY LABORATORIYASI

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot-maqolada jurnalistlar ijodiy faoliyatida mediakonvergensiya va raqamlashuv ta'sirida yuzaga kelayotgan yangicha uslub va yondashuvlar, ularning mahoratni shakllantirishga ta'siri o'rganilgan. O'rtaga tashlangan masalalarni yoritishda xorijiy mutaxassislarning jurnalist kasbiy faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, qiyosiy, funksional-tuzilmaviy, kontent-tahlil usullaridan keng foydalanildi. Xususan, jurnalistning ijodiy faoliyati, ijod usullari, uning xatti-harakatlarini boshqaradigan texnik vositalar va kasbiy-axloqiy g'oyalar metodologik manbalar asosida dalillandi. Video va infografikani yaratish qobiliyati, ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya bilan muloqot qila olish, o'z materiallarini "piar" qilish, User-generated contentdan foydalan olish kabi yangi jurnalistik kompetensiyalar o'rganildi.

Mediakonvergensiya sharoitida ma'lumotlar infratuzilmasi, sun'iy intellekt, ma'lumotlar uzatishning yangi standartlari bo'lgan 5G – mobil aloqaning beshinchi avlodiga oid qiziqarli faktlar tadqiq qilindi. Turli madaniyatga mansub jurnalistlar ijodiy laboratoriyasida konvergent jarayonlar jadallashuvi, konvergent formatdagi tahririyyatlarning turlari bir qator jurnalistik materiallar misolida keng tahlil qilindi.

Har uch mamlakat internet jurnalistlari mahoratining o'ziga xosligiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekistonda tahririyyat xodimlari, hozirgi universallashtirilgan jurnalistlar katta auditoriya o'ziga jalb qilishda multimedaviy janrlar orqali "Foto" va "Video" ruknlarini taqdim etishi tadqiq etildi. Payme elektron to'lov tizimi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, uydan chiqmagan holda gazetaga obuna bo'lish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. O'zbekistondan farqli ravishda

Dilnoza Aminova

Doctor of Philological Sciences (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: nozikdil@mail.ru

CREATIVE LABORATORY OF JOURNALISTS IN DIFFERENT CULTURES

ANNOTATSIYA

The article considers and deeply analyzes the issue of skills formed on the basis of new methods and approaches arising under the influence of media convergence, digitization, social, economic and technological changes in journalists' creative activity. The scientific-theoretical views of foreign experts on the professional activity of journalists have been researched. In particular, such issues as journalists' creative methods, technical tools that control their actions, and professional and ethical ideas are proven on the basis of methodological sources. New journalistic competencies such as the ability to create videos and infographics, to communicate with the audience through social networks, to "publicize" their own materials, and to use user-generated content were also studied.

In the conditions of media convergence, along with the positive aspects of the professional activity of journalists of the local press, in the conditions of technologicalization, scheduling and universalization of journalists' work, negative psychological phenomena such as reduction of staff and chronic lack of time, tension and stress of journalists are theoretically justified. In particular, interesting facts about data infrastructure, artificial intelligence, new standards of data transmission, 5G – the fifth generation of mobile communication are also presented. In addition, in the creative laboratory of journalists representing different cultures, the acceleration of convergent processes, the types of editorials in the convergent format were widely analyzed on the example of a number of journalistic materials.

Internet journalists of 3 countries (Uzbekistan, China and UK) have been identified as having unique skills. In particular, it was found that in

Xitoyda elektron va onlayn nashrlar, bloglarning keskin ko'payishi mamlakat media infratuzilmasining yangicha formati va jurnalistlar ijodiy faoliyatida o'zgarishlar mavjudligi kuzatildi. Buyuk Britaniya internet OAVda esa yangi bosqich boshlanishi natijasida oflayn versiyaga ega bo'lmagan nashrlarning e'tibordan qolayotganligi; so'nggi o'n yillar davomida iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar mamlakatning media sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi; ko'pgina nashrlar formatni minimallashtirish yo'liga o'tib, ma'lumot tayyorlash standartlari, taqdimot uslubi, nashrning janr palit-rasi va maketlarning o'zgartirilayotganligi bilan bog'liq masalalar tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: ijod laboratoriyasi, mediakonvergeniya, mahorat, texnologiya, jadvallashtirish, universallashtirish, audio, video, infografika, 5G format.

Uzbekistan, editorial staff, today's universalized journalists can present "Photo" and "Video" columns with special attention to multimedia genres in order to attract a large audience, establish cooperation with the Payme electronic payment system, and possibility of subscription to newspapers without leaving home. Unlike Uzbekistan, China's media is developing under active cross-cultural communication, transition to the Internet, censorship, new approaches to understanding the opinion of journalists, so it is analyzed that the Chinese network media environment occupies a stable and influential position in the development, innovation and creation of new media. As a result of the beginning of a new phase in the UK Internet media, publications that do not have an offline version will lose popularity; economic and technological changes during the last decades have a serious impact on the country's media sector. Such issues as information, standards development, presentation styles, publication genre palettes, and layouts have been explored as many publications have moved toward format minimization.

Key words: creative lab, media convergence, skill, technology, tabulation, universalization, audio, video, info graphics, 5G format.

KIRISH

Jurnalist kasbiy faoliyati uning ijodiy mahorati bilan bevosita bog'liqdir. Mahoratli bo'lish esa, avvalo, iste'dod va fidoiyilikni talab etadi. XXI asrning global o'zgarishlari, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik inqiloblar ta'sirida jurnalistlar faoliyatida yangicha yondashuvlar yuzaga kelgan murakkab sharoitda mahorat masalasi yana ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar davri jurnalistikaning yangi kommunikativ voqelikda namoyon bo'ladigan jurnalistik mahoratning yangi qirralarini aniqlash vazifasini qo'ydi, chunki global kommunikasiya tizimida ishtirok etadigan jurnalist yangi axborot texnologiyalariga moslashishga majbur bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning natijasi mazkur kasbning chegaralarini kengaytirish, yangi ijod tizimiga o'tish barobarida endilikda jurnalist oldida ko'plab tahliliy va texnokratik vazifalarni ham yuklamoqda [Kopylov, 2013; 11].

ASOSIY QISM

“Jurnalistika nazariyasiga kirish” kitobi muallifi Y.Proxorov jurnalist faoliyatini uchta – mualliflik, tahririy va tashkiliy guruhlariga ajaratib tushuntiradi:

Mualliflik faoliyati deb o'z asarlarini yaratish, nashrning muayyan soni, dasturi yoki boshqa mualliflik faoliyat turlariga asarlarni yo'naltirish va tartibga solishga aytiladi.

Tahririy faoliyat – adabiy tahrir, ya'ni matn tahrirlashning har xil turlari deb

izohlanadi.

Tashkiliy faoliyat kundalik tadbirlarni oliy darajada olib boruvchi yetakchi OAV guruhiga xos. U, muassislar va nashriyot bilan biznes aloqalari, turli bo‘limlar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, kadrlar masalalarini hal qilish, tahririyat faoliyatini boshqarish kabi vazifalarni bajaradi [Prohorov, 2012; 275-277].

“Jurnalistik faoliyat asoslari” kitobi muallifi G.Lazutina esa jurnalistning kasbiy faoliyatini tahlil etib, “jurnalistning ijodiy faoliyat usuli” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Tadqiqotchi fikricha, jurnalistning ijodiy faoliyat usuli bir tomondan jurnalistlarni birlashtirsa, ya’ni ularni bitta kasb egalari deb hisoblasa, ikkinchi tarafdin boshqa kasb vakillaridan ajratadi [Lazutina, 2011; 320]. G.Lazutina tavsiya etayotgan mazkur faoliyat usuli muayyan maqsadga erishish uchun ko‘zlangan individual tarkibiy qismlarning birikmasi sifatida tavsiflanadi. Unga ijodiy harakat, jurnalist uslubi, uning xatti-harakatlarini boshqaradigan texnik vositalar va kasbiy-axloqiy g‘oyalar kiradi [Aleksenko, 2014; 18].

Tahlillarimizga ko‘ra, ijodiy harakatni nisbatan ikki mustaqil qismlar birligi bo‘lgan axborotni olish va matnni shakllantirish bosqichlariga ajratamiz. Birinchi bosqichda jurnalist istalgan vaziyatning manzilini, kontekstda yuzaga kelgan vaziyat ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlaydi, voqeani o‘rganish uchun zarur bo‘lgan amaliy ishlarni tashkillashtiradi, ularning sharhiga qo‘shimcha kiritadigan dalillarni to‘playdi. Ikkinchi bosqichda esa matn muallif tomonidan tahrirlanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan har bir bosqichda jurnalist muayyan usullardan foydalanadi. Jurnalist faoliyat usulining uchinchi muhim jihati texnik vositalardan foydalanish hisoblanadi. Internetning rivojlanishi tufayli yangi OAV paydo bo‘ldi va an’anaviy OAVning imkoniyatlari kengaydi. Elektron – komp’yuter vositalari barcha ommaviy kommunikatsiya ishtirokchilarining o‘zaro ta’sirini kuchaytirdi [Aleksenko, 2014; 19].

An’anaviy nashriyotlar o‘z kontentini taqdim etishda yangi mediaplatformalar (radiodaninternetgacha, uyali telefon, planshet va ma’lumot ekranlari) dan foydalanishni boshlagan bir paytda jurnalist faoliyatining tabiati o‘zgardi. U yanada mobil va ochiq bo‘ldi. Jurnalistlar ovoz yozish uskunalarini va uydagi videokameralardan qanday foydalanishni bilsalar ham, ularni hech qachon o‘zlarining ishlab chiqarish vositasi deb bilishmagan. Biroq, bugungi kunda ushbu formatlar, ayniqsa, video vositasi ustunlik qilib, tobora ko‘proq pullik reklamalarni jalb qilmoqda [Kopylov, 2012; 30]. Ya’ni ushbu kontekstdagi konvergensiya bir marotabalik ma’lumot va xabarlarini yaratish va ularni turli platformalarda ko‘paytirish tamoyiliga asoslangan jarayon sifatida taqdim etiladi. Endilikda ular umumiy axborot mahsulotlarini yaratish jarayonida ishtirok etuvchi transmedia mahsulotlarini yozish, o‘zaro axborot almashish, e’lonlar, OAV materiallariga havolalarni taqdim etish tamoyiliga asoslanadi [Kopylov, 2012; 124].

Haqiqatan ham bugungi kunda xorijiy va mahalliy jurnalistlar ijodiy faoliyatida materillarni taqdim etish tili, usuli va uslubida yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Avvalgi katta hajmdagi matnlar o‘rnini infografika, foto, video va mul’timedia kabi unsurlar bilan boyitilgan axborotlar qamrab olmoqda. Bu esa foydalanuvchilarga

ma'lumotlarni istalgan formatda tanlash, o'qish va o'zaro almashish kabi keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

“Konvergent jurnalistika: nazariya va amaliyot” kitobi muallifi, filologiya fanlari doktori Y.A. Baranova yangi jurnalistik kompetensiyalarni quyidagilarga ajratadi:

- Video va infografikani yaratish qobiliyati.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya bilan muloqot qila olish va o'z materiallarini “piar” qilish. Bloglar, veb-saytlardagi forumlar, shuningdek, tahririyatlardagi maqolalarga sharhlar berish jarayoni jurnalistlarning yangi vakolatlarini yuzaga keltirdi. Shunday fikr mavjudki, jurnalistikaning kelajagi – endilikda munozara jurnalistikasi (debatejournalism)ga bevosita bog'liq. Bu shuni anglatadiki, jurnalist endi hamma biladigan mavzuni yorituvchisi emas, balki foydalanuvchi bilan yaqin aloqada ishlaydigan suhbatdoshga aylanib, ular bilan xilma-xil mavzularni muhokama qilishda bevosita ishtirok etadi.

- Munozara jurnalistikasida faoliyat olib boruvchi jurnalist o'z bilimini tinglovchilarga yetkazuvchi subyektga aylanadi.

- Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan (UGC – User-generated content) kontentdan foydalana olish [Baranova, 2017; 179-180]. Ushbu kontent (UGC) brend auditoriyasi tomonidan yaratilgan original kontent hisoblanadi. U bloglardagi sharhlardan tortib fotosurat va videoroliklar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Shu sababli muayyan kompaniya o'z maqsadlarini amalga oshirishda mazkur kontent orqali biron bir veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqlarda o'z brendini ilgari surishi uchun ancha samarali usul sifatida xizmat qiladi [<https://texterra.ru/blog/chto-takoe-ugc-osobennosti-tipy-i-sposoby-primeneniya.html>].

Y.A. Barovanadan farqli ravishda yana bir filologiya fanlari doktori L.Svitich mediakonvergensiya sharoitida mahalliy matbuot jurnalisti va umuman jurnalistlik kasbida tub o'zagirshlar ro'y berayotganligini qayd etadi. Uning fikricha, auditoriya bilan aloqalarning samaradorligi, interfaollik, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik fikri oshmoqda. Internetdan foydalanish jarayonida manbalar bilan ishlash tartibida ham o'zgirishlar kuzatilmoqda. Ijobiy jihatlar bilan birga, salbiy holatlar ham yuzaga kelayotgani kuzatilmoqda. Bularga ish ritmining haddan ziyod yuqoriligi, “klonlangan” ikkilamchi ma'lumotlar ko'payib, jurnalistlarning ijodiy faoliyati cheklanmoqda. Jurnalst ishini texnologiyalashtirish, jadvashtirish va universallashtirish sharoitida xodimlarning qisqarishi hamda surunkali vaqtning yetishmasligi, jurnalistlarning keskinligi va stress holatlari kabi salbiy psixologik hodisalar ham paydo bo'lmoqda [Svitich, 2019; 46-47].

Rossiyaning “Jurnalist” jurnali “Ta'lim” bo'limi muharriri K.Nigmatullina jurnalning 2020-yil 2-sonida “Keyingi o'n yillikning jurnalisti qanday bo'ladi?” deb nomlangan maqolasida media va kommunikasiya sohasi mutaxassisi yozma va nutqiy savodxonlikning an'anaviy ko'nikmalaridan tashqari, media va kommunikatsiyalar qanday tashkil etilganligini va kelajakda ular bilan nima bo'lishi mumkinligini tushuniradi. Biz media va raqamli savodxonlikni bilamiz, ba'zi mutaxassislar ma'lumotlar infratuzilmasi, sun'iy intellekt, va, aniqrog'i, ma'lumotlar uzatishning yangi standartlari (hozirda 5G deyiladi) mavjudligini e'tirof etadilar [<https://jrnlst.ru/>

zhurnalist-no-2-2020]. “Russia Beyond” bosh muharriri V.Pulya ham 5G tarmoqlari media bozorga qanday ta’sir qilishi haqida fikr bildiradi. Uning aytishicha, 5G – mobil aloqaning beshinchi avlodi. Ushbu mobil standart reklama beruvchilar uchun yangi tarkib, o’quvchilar uchun yangi kontent va jurnalistlar uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Shuningdek, muallif kontentda quyidagi o’zgarishlarni sanab o’tadi:

■ (4k, 8k) formatli yuqori tezlikda striming xizmatlari (katta hajmli videolar) yanada ko‘payadi. Kontentni o‘sha zahoti yuklab olish imkoniyatlari kengayadi.

■ Odamlar yanada ko‘proq foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni suratga olib, uni bir zumda tarmoqqa yuklash imkonini beradi. Jonli efirlar ancha sifatli bo‘lganligi bois, ularni ko‘rish ehtiyoj ortadi. Hatto 360 darajada aylantirilishi mumkin bo‘lgan jonli ko‘rsatuvlar ko‘payadi.

■ Ikki qurilma o‘rtasida ma’lumot almashishda kechikish deyarli yo‘qoladi. Yana bir muhim yangilik past unumli qurilmalardan samarali o‘yinlarni o‘ynash uchun striming xizmatlarini rivojlantirishga turtki beradi.

■ 5G virtual va kengaytirilgan voqelikning striming taraqqiyotiga sabab bo‘ladi. Ushbu “og‘ir” kontent odatda qurilmaga uzoq yuklab olish orqali tarqatiladi. Aynan 5G esa kontentni har qanday qurilmaga uzatish orqali, texnologiyalarni yanada ommalashuvini ta’minlaydi.

Mediadagi raqobat distribusiya tomonga o‘tadi. 5G operatorlarining kontent ta’minotchilariga o‘z shartlarini aytish imkoniyati vujudga keladi. Kabel tarmoqlari va 5G operatorlari o‘rtasida konvergent jarayonlar kuzatiladi. Natijada Amazon, Apple, Google kabi texnologik gigantlar ushbu poygada ishtirok etadilar [<https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-06-2019>].

Hozirgi jurnalist hech bo‘lmaganda ochiq ma’lumotlar bazasi, ularni qayta ishlash va, hatto, grafik tasvirlash, aniqlangan dalillar asosida hikoyalar bilan shug‘ullanishni bilishi kerak. Kelajak haqidagi eng oddiy taxminlarga ko‘ra, ma’lumotlar ko‘p bo‘lgani singari, ularni qayta ishlash va vizuallashtirish vositalari ham kengayadi. Tirik odamlar bilan muloqot endi hikoya yaratish uchun unchalik samara be‘rmaydigandek tuyuladi, chunki odamlarning xotirasi kompyuter xotirasidan farqli o‘laroq ma’lumotlarni osonlik bilan buzadi. Hissiyot va intonatsiyalar ularni izohlashga halaqit beradi. Jurnalistika yoki kontent marketingning kelajak kommunikatori ma’lumotlarga ega bo‘lish va kommunikasiya malakasini o‘zlashtirish evaziga foyda ko‘radi. Axborotni tarqatishda, auditoriyaning fikr-mulohazalarida virus va kaskadlar, bot va trollar o‘rtasidagi muloqot, salbiy sharhlar va inqirozga qarshi kommunikatsiyalar mavjudligi qonuniyatlarini ko‘rmoqdamiz. Insonlar bilan teng ravishda mashinalar, yozuv skriptlari va bu sohaga tegishlilar ishtirok etadigan kelajak kommunikasiyasi uchun “Sening so‘zing qanday baholanishi” va u bilan nima qilish mumkinligini oldindan ko‘ra bilish lozimligi talab etiladi [<https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-2-2020>].

Rus nazariyotchilari kabi o‘zbek tadqiqotchisi, filologiya fanlari doktori N.Kosimova ham bir vaqtning o‘zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhimligini alohida ta’kidlaydi. Turli sohalarning konvergentsiyasi jurnalistlardan ham universallashtirish,

ham ixtisoslashuvni talab etadi. Shu bilan birga, universallashuv, to'g'rirog'i, transprofessionallashuv, avvalambor, aynan bir sohani to'liq o'zlashtirib olishni taqozo etadi. Universal jurnalist, bu – muayyan bir sohani to'liq egallagan mutaxassis ham demakdir. Aynan mana shu narsa bir-biriga yaqin bo'lgan ixtisosliklarni tezlikda o'zlashtirib olish imkonini beradi. Yuzaki yondashuv, barcha narsani shunchaki bajarish professional vazifani amalga oshirish uchun yetarli emas. Medialarning birlashuvi, ya'ni konvergensiya sharoitida jurnalist ijodi o'zining ko'p qirraligi, axborotni qisqa, faktlarga asoslangan holda, zamonaviy talablarga mos ravishda tezkor ravishda uzatishi bilan ajralib turadi [Kosimova, 2019; 150].

Rossiyalik jurnalist K.Nigmatullina va o'zbek olimasi N.Qosimova to'g'ri ta'kidlaganlaridek, hozirgi jurnalist voqea joyidan to'g'ridan-to'g'ri jonli reportaj tayyorlash, intervyu olish, online konferensiyalar tashkil qilish uchun birinchi navbatda ochiq ma'lumotlar bazasidan erkin foydalana olish, axborotlarni qayta ishlash va, ayniqsa, infogragafika va multimedia elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini bilishi dardkor. Bundan tashqari jurnalist endi bir vaqtning o'zida matn yozish, tasvirga tushirish, videoga olish, intervyu olish kabi ko'nikmalarni o'zida mujassam etuvchi universal va ixtisoslashgan mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ular ijodiy faoliyati va mahoratining yanada yuksalishi uchun katta mas'uliyatni talab etadi.

Turli madaniyatlar vakili bo'lgan jurnalistlar ijodiy laboratoriyasida konvergent jarayonlarning jadallashuvi bo'layotgani hech kimga sir emas. Nashriyotlar uchun endi oddiy jurnalist emas, balki yuqorida rus tadqiqotchisi K.Nigmatullina ta'kidlagan kelajak kommunikatori, ya'ni universal jurnalistlarga ehtiyoj sezilmoqda. Nashriyotlar bugungi axboriy raqobat va tezkor axborotga egalik qilish sharoitida auditoriya talabini qondirish uchun tezkorlik, interfaollik hamda axborot manbalarining ishonchliligi kabi tamoyillaridan unumli foydalanmoqdalar. Raqamli texnologiyalar asrida jurnalistning tahlil va tahrir mahorati bilan birga, vizual imkoniyatlardan to'liq foydalana olish ko'nikmasini o'zlashtirish talab qilinmoqda.

Nazariyotchilar konvergent formatdagi nashriyotlarning bir necha turlari mavjudligini e'tirof etadilar:

■ *Bo'limlarning o'zaro aloqasi.* Jurnalistlar hali ham bo'limlar va nashrlarga birlashtirilgan, ammo endi ular boshqa nashrlar bilan hamkorlik qilmoqdalar. Bunday holatda bo'limlar yoki mahsulotning o'zaro ta'siri yaxshilanishi muqarrar.

■ *Gazeta modeli.* Multimedia kontent asosi hanuzgacha gazetalarning qog'ozli shakliga asoslangan. Zero, jurnalistlar uchun bu asosiy mahsulot bo'lib, hozirga qadar professional jurnalistika imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo gazetadan Internet saytida e'lon qilingan ma'lumot radio, video, interfaol infografika yordamida kengaytiriladi.

■ *Internet modeli.* Birinchi manba, bu – sayt bo'lib, uning materiallaridan bosma nashrlarda ham foydalaniladi [Kopylov, 2012; 124–125].

Turli madaniyatlar paradigmalari sharoitida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston, Buyuk Britaniya va Xitoy internet jurnalistlarining ijod laboratoriyasida ko'zga tashlanadigan muayyan farqli jihatlarni kuzatilyapti. Buyuk Britaniya internet jurnalistlari madaniyat mavzusiga oid materiallarni yoritishda rang, tovush, navigatsiya, foto,

audio va video imkoniyatlarini uyg'unlikda foydalanishga intiladi. Xitoy internet jurnalistlari ham milliy madaniyat mavzusini ommaviy auditoriyaga havola etishda endilikda matn o'rniga foto va video unsurlardan unumli foydalanmoqdalar. O'zbekiston internet jurnalistlari 2015-yilgacha ko'proq matn mazmuniga e'tibor berishgan bo'lsa, 2016-yildan bugunga qadar jahon tajribalarini o'z ijodlariga singdirishga harakat qilmoqdalar.

O'zbekiston internet jurnalistlari ijodida 2015-yilgacha voqea va hodisani tasvirlashda, asosan, yozma matn imkoniyatidan foydalanilgan. Bunda faktlarning ichki mazmuni, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashda sustlik kuzatilgan. Oxirgi 5-6 yilda internet OAV soni sezilarli o'sgan sharoitda onlayn jurnalistlar ushbu amaliyotdan voz kechib, xorijiy hamkasblarining ilg'or tajribalariga ko'proq murojaat qilmoqdalar.

Buyuk Britaniya internet jurnalistlari madaniyat mavzusiga oid materiallarni yoritishda rang, tovush, navigasiya, foto, audio va video imkoniyatlarini uyg'unlikda qo'llashga, voqea-hodisalarni chuqur tahliliy asosda berib borishga intiladilar. Bunda ma'lumotlar "teskari piramida" tamoyili asosida uzatiladi va foydalanuvchini materialni boshdan oxirigacha o'qishga undaydi. Britaniya madaniy hayotiga bag'ishlangan yangiliklarga biriktirilgan foto va videolar bilan birga, gipermatnlilik imkoniyatidan ko'p foydalanishi kuzatiladi. Bu, o'z navbatida, bir vaqtning o'zida materialga biriktirilgan boshqa muhim ma'lumotlarni o'qish imkoniyatini beradi. Britaniyalik internet jurnalistlarining materiallarida interfaollik va multimediyaviylik imkoniyatlarining kengligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, dunyoda ko'p o'qilishi bo'yicha uchinchi gazeta sifatida e'tirof etilgan "Gardian"ning veb sahifasida jurnalistlarning ijodiy mahorati sayt "jonlili" gini ta'minlashda, tahliliy va tanqidiy materiallar mazmunida ko'proq mantiqiy dalillarga murojaat etishda hamda foto- va video ilovalar bilan boyitilishida o'z ifodasini topgan. Xitoy va O'zbekiston internet jurnalistlari ijodiy mahorati esa interfaollik va multimediyaviylik samaralaridan foydalanishda, voqea-hodisalarni ko'proq hissiy asosda talqin qilishda namoyon bo'ladi. Har ikki mamlakat internet jurnalistlarining 2015-yildan boshlab ko'proq gipermatnlilik omiliga murojaat etishlari kuzatilmogda. Shuningdek, katta hajmdagi matndan voz kechib, ranglar siyosati va infografikadan unumli foydalanishga urg'u berish, materialni foto va video ilovalar bilan uzatish tendensiyasi kuchaymogda.

"Xalq so'zi" gazetasining onlayn nashri - "xs.uz" veb-nashri 2017-yilning 22-sentabr kuni elektron OAV sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (Guvohnoma raqami: 1191). Onlayn nashr o'zbek (kirill va lotin), rus va ingliz tillarida ma'lumotlar taqdim etadi. Gazetaning oldingi versiyasi "old.xs.uz"da joylashgan bo'lib, "Ruknlar", "Bugungi sonda", "Video", "Hujjatlar", "Interaktiv xizmatlar" va "Bog'lanish" ruknlariga ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi rasmiy sayt "xs.uz" ancha kengaytirilgan ko'rinish kasb etgan. Masalan, "Siyosat", "Hujjatlar", "Iqtisodiyot", "Jamiyat", "Dunyo", "Sport", "Madaniyat", "Lifestyle", "Welcome to Uzbekistan" va "Tahririyat" ruknlari orqali mamlakat va xorijda sodir bo'layotgan eng so'nggi yangiliklar, dolzarb va maxsus voqealar yuzasidan ma'lumotlar va eng asosiysi, yangiliklar taqvimi foydalanuvchi uchun ko'plab qulayliklarni yaratmogda. Aynan

yangiliklar taqvimiy yuzer – foydalanuvchi tomonidan o‘tkazib yuborilgan yoki ko‘ra olmagan xabar va videolarni qayta ko‘rish imkoniyatini beradi. Tahririyat xodimlari, xususan, hozirgi universallashtirilgan jurnalistlar katta auditoriyani o‘ziga jalb qilishda multimediyaviy janrlarga alohida e‘tibor qaratgan holda “Foto” va “Video” ruknlarini taqdim etish boshladilar. Shuningdek, “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalarini mushtariylarga qulaylik taqdim etish maqsadida muhim yangilikka qo‘l urdi. Tahririyat Payme elektron to‘lov tizimi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun uydan chiqmagan holda gazetaga obuna bo‘lish imkoniyati yaratildi.

O‘zbekistondan farqli ravishda Xitoy OAV globallashtirish, internet tizimiga o‘tish, senzura, jurnalistik fikrni tushunishning yangicha yondoshuvlari sharoitida rivojlanayotganini ta‘kidlash kerak. Xitoy jurnalistikasi mamlakat mentaliteti va an‘anaviy ijtimoiy qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga globallashtirish tendensiyalariga mos kelmoqda. Axborot globallashtirish sharoitida Xitoy jurnalistikasi o‘ziga xos natijalarga ega bo‘lgan o‘zgarishlarni ham boshidan o‘tkazdi. Hozirgi kunda Xitoy tarmoq media muhiti OAVning rivojlanish, innovatsiya va yangilik yaratish bo‘yicha barqaror va nufuzli o‘rinni egallab kelmoqda.

Xitoyning “Jen‘min‘ Jibao” (“Xalq gazetasi”) davlatning bosh nashri hisoblanadi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, yangilanishlar haqida biri-biridan muhim maqolalar, dolzarb reportajlar, qiziqarli intervyular berib boriladi. Xitoyliklar ayni shu jarayonlar haqida gazetadan o‘qishni afzal ko‘rishadi. Mazkur nashrning internet foydalanuvchilari soni ham hayratlanarli – salkam sakkiz yuz million o‘quvchidan iborat.

“Jenmin Jibao” gazetasi (ma‘nosi: “xalqning kundalik gazetasi”) dunyodagi eng yetakchi va ta‘sir kuchi yuqori bo‘lgan nashrlardan biridir. Pekindagi shtab-kvartirada ishlovchi jurnalistlar soni ming nafardan ortiq. Shuningdek, jahonning turli mamlakatlari hamda Xitoyning viloyat markazlari, yirik shaharlarida muxbirlarga ega ushbu gazetaga 1948-yili asos solingan. U XXR kommunistik partiyasining rasmiy nashri va markaziy matbuot organi hisoblanadi. “Jenmin jibao” xitoy tilidan tashqari ingliz, fransuz, arab, ispan, portugal, yapon, koreys, rus, tibet, uyg‘ur tillarida nashr etiladi. Gazetaning tirajini xitoy va xorijiy tillardagi nashrlari bilan birga 3 million nusxadan oshadi.

“Jenmin jibao”ning ko‘plab sho‘ba korxonalarini mavjud. Ko‘p yillik rivojlanish davrida u yirik tashkilotga – “Jenmin jibao” mediakongressiga aylangan. Mamlakat va partiya rahbariyati holdingga alohida e‘tibor bilan qaraydi va unga katta yordam ko‘rsatib keladi.

Gazetaning bosh sahifasida “Ichki xabarlar”, “Fikr”, “Biznes”, “Harbiylar”, “Dunyo”, “Jamiyat”, “Madaniyat”, “Sayohat”, “Ilm”, “Sport”, “Maxsus reportaj”, “Foto” va “Video” ruknlari o‘rin olgan. Xitoy xalqiga xos bo‘lgan qizil rang saytning orqa fonida aks ettirilgan. Saytda ma‘lumotlar va xabarlar to‘qqiz tilda taqdim etiladi. Arxiv ham mavjud. Saytning asl ko‘rinishi boshqa tillarida biroz farqlanadi. Bu asosan ruknlarning yig‘ma ko‘rinishida kuzatiladi.

Xitoyning yetakchi axborot agentligi “Sinxua” dunyodagi 105 mamlakatda vakolatxonalariga ega va u dunyodagi eng yirik mediakorporatsiya hisoblanadi.

“Sinxua”ning yangi media markazi soha rivoji uchun ko‘mak bo‘ladigan ishlanmalar yaratish bilan shug‘ullanadi. Ana shunday “nou-xau”lardan biri “OAV miyasi” deb nomlanadi. Maxsus qurilma biror anjuman yoki tadbirni kuzatib, uning tafsilotlari haqidagi xabar yoki yangilikni o‘n soniya ichida tayyorlab beradi. Mutaxassislar tadbirga oid axborotni jurnalistlar qancha muddatda tayyorlashi mumkinligini ham tekshirib ko‘rishdi. O‘ta chaqqon muxbir bir tadbir to‘g‘risidagi xabarni tezkor tayyorlashi uchun 15 daqiqa sarflar ekan. “OAV miyasi” dasturi auditoriyaga ma‘lumot yetkazishda ortiqcha vaqt sarflashni yo‘qqa chiqaradi. Bu sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan va matnlarni mustaqil o‘qiy oladigan virtual teleboshlovchidir. Sun‘iy intellekt xitoyliklarning ovozi, lab harakati va yuz ifodalarini o‘xshata oladi. U hozircha xitoy va ingliz tillaridagi dasturlarni olib boradi. Virtual diktor har kuni 24 soat uzluksiz ishlay oladi. Bu esa yangiliklarning tezkor va davomiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, ushbu texnologiya favqulodda axborot tarqatish kerak bo‘lgan hollarda juda foydali. Sayt tahririyati bir necha katta-katta xonalarda joylashgan. Hamma bir-birini ko‘rib turadi. Lekin har bir ijodiy xodimga g‘oyat qulay ish sharoiti yaratilgan: eng zamonaviy kompyuter, yagona lokal tarmoq, harakatlanuvchi kursi. Har bir xodim o‘rni atrofi oyna bilan o‘ralgan yarim aylana stol va 9 kvadrat metr joydan iborat. Jurnalistlarning qisqa muddat dam olishlari uchun bino tomida bog‘ ham barpo etilgan.

Bizga ma‘lumotlar joylanayotgan bosh sahifani ko‘rsatishdi. Unda matn, fotosuratdan tashqari, videotasvirlar, harakatdagi sxema, diagrammalar ham bor edi. Voqelik haqida batafsil ma‘lumot berish uchun dron (uchuvchisiz video qurilma) lardan foydalaniladi. Bu qurilma boshqariladi. Uning yordamida havodan turib istalgan hududni tasvirga olish mumkin. Bunday tasvirlar matnni to‘ldiradi, voqea haqida batafsil ma‘lumotni taqdim etadi. Agar voqea yer osti shaxtasi, suv ostida ro‘y bergan bo‘lsa, komp'yuterlar orqali “tiklovchi” animasion tasvir yaratiladi. Bu usul ham o‘quvchilar e‘tiborini jalb etishga xizmat qiladi [<http://xs.uz/uzkr/post/khitoj-matbuoti-taraqqiyotining-siri-nimada>].

Buyuk Britaniyaning “Guardian” onlayn nashri “theguardian.com” bo‘lib, an’anaviy nashr materiallarda farq qiladi. Onlayn nashr 42,6 million o‘quvchi tomonidan o‘qiladigan dunyoning yetakchi beshinchi nashri hisoblanadi. Gazeta Manchesterda 1821-yili Jon Edvard Teylor (John Edward Taylor) tomonidan “Manchester Guardian” nomi bilan tashkil etilgan. 1959-yili u zamonaviy nomga almashtirildi va 1964-yili tahririyat Londonga ko‘chib o‘tdi [https://inosmi.ru/guardian_co_uk/]. 1999-yili nashr internetda paydo bo‘ldi. Rasmiy sayti “guardian.co.uk” bo‘lib, bosma nashrning barcha materiallari, original kontent hamda foydalanuvchilar uchun bir qator xizmatlar: “Tanishuv”, “Ish” va “Takliflar”ni taqdim etadi. Internet OAV asrining boshida Buyuk Britaniya onlayn jurnalistikasi an’anaviy nashrlarning klon saytlari va yangi onlayn loyihalariga bo‘lingan. 2000-yillarning boshlarida barcha milliy nashrlar o‘z saytlariga pullik xizmatlarni joriy qilishi bilan Britaniya Internet OAVda yangi bosqich boshlandi. Natijada oflayn versiyaga ega bo‘lmagan nashrlar mashhurlikni yo‘qotdi. So‘nggi o‘n yillar davomida iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar Buyuk Britaniyaning media sohasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina nashrlar formatni

minimallashtirish yo‘liga o‘tdi. Ma'lumot tayyorlash standartlari, taqdimot uslubi, nashrning janr palitrasi va maketlari o‘zagrdi [<https://age-info.com/2018/02/ugc-и-журналистика-в-издании-гардиан-the-guardian/>].

Onlayn nashrning asosiy sahifasi, avvalo, nashrning Britaniya versiyasiga yo‘naltirilganligi bilan ajraladi. Shuningdek, o‘quvchi AQSh va Avstraliya uchun mo‘ljallangan versiyalarni tanlashi mumkin. Birinchi sahifa grafik ko‘rinishida taqdim etilgan, u sarlavha, qisqacha tavsif, shuningdek, sharhlar soni, mavzu bo‘yicha maqolalarga havolalar, butun kontent kliklangan bo‘limlar va ruknlardan olingan eng so‘nggi yangiliklar va maqolalar to‘plamidan iborat. Ushbu kontent biz ko‘rayotgan lentaning aksar qismini egallaydi. O‘ng tarafdagi ustunda nashrning xizmatlari, uning ta‘lim loyihalari, aloqa va tanlov ma‘lumotlari, marketing takliflari, bugungi kundagi gazetaning tarkibi haqida ma‘lumotlar joylashtirilgan. Sahifaning pastida yangiliklarga obuna bo‘lish qismi mavjud. U “Sizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangiliklar” deb nomlanadi va “The Guardian”ga obuna bo‘lish va eng so‘nggi yangiliklarni olishning mumkin bo‘lgan usullari haqida qisqacha ma‘lumotni o‘z ichiga oladi.

“The Guardian” onlayn nashri “Yangiliklar”, “Sport”, “Sharhlar”, “Madaniyat”, “Biznes”, “Pul”, “Lifestyle”, “Sayohat”, “Atrof-muhit”, “Texnologiyalar”, “Televidenie”, “Video”, “Sana”, “Takliflar”, “Ish” kabi o‘n beshta rukndan iborat. Shunga qaramay, so‘nggi uchta rukn axboriy bo‘lmagan, ammo muayyan xizmatlarni taqdim etadigan loyihalar sirasiga kiradi. Shuni ham takidlash kerakki, “Texnologiyalar”, “TV” va “Video” ruknlarga joylashtirilgan kichik ruknlar hisoblanadi. Foydalanuvchi bosh sahifada joylashgan “Madaniyat” rukni orqali ruknosti video, audio va slayd-shoular, madaniyat yangiliklari, bloglardan eng so‘nggi materiallarni ko‘rish imkoniyatiga ega. Ruknning eng ommabop materiallari bilvosita madaniyat bilan bog‘liq. Ular ko‘proq madaniyatga aloqador kishilarning fikr-mulohazalariga bag‘ishlangan. Milliy teledasturlar, shou, kitoblar va spektakllar o‘quvchilar orasida juda mashhur.

Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston, Buyuk Britaniya va Xitoy internet jurnalistlari ijodiy laboratoriyasi, mavzuni yoritishda internet jurnalistikasi janrlari tadriji hamda internet OAVning multimedaviy imkoniyatlari samaradorligi kuzatilmoqda. XXI asrning global ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlari ta‘sirida internet jurnalisti faoliyatining asosi bo‘lgan ijodiy mahorat masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar yangi kommunikativ voqelikni aks ettirishda internet jurnalist mahorati shakllanishi uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Buning natijasida kasbiy chegaralar kengaydi, ushbu faoliyat yanada mobil va shaffof bo‘ldi, yangi ijod tizimiga o‘tish barobarida endilikda jurnalist oldiga ko‘plab tahliliy va texnokratik vazifalar ham qo‘yildi.

Turli madaniyatlar paradigmatlari doirasida faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston, Buyuk Britaniya va Xitoy internet jurnalistlarining ijod va mahorat laboratoriyasi rang, tovush, navigatsiya, foto, audio va video imkoniyatlarini uyg‘unlikda qo‘llash, interfaollik, gipermatnlilik omillari hisobiga takomillashmoqda. Uch mamlakat veb jurnalistlari faoliyatida mushtarak jihatlar mavzuni yoritishda dalil-isbot tizimidan samarali foydalanishda o‘z ifodasini topgan. Tafovutlar esa faktning talqinida,

muayyan siyosiy ustqurtmaga xizmat qilishda, muallif “men”ini ifoda etishda, axloqiy-madaniy tarbiyasida, texnologik tayyorgarligi va kasbiy tajribasida namoyon bo‘ladi. Buyuk Britaniya internet jurnalistlari madaniyat mavzusiga oid materiallarni yoritishda voqea-hodisalarni chuqur tahliliy asosda berib borishga, ma’lumotlarni “teskari piramida” tamoyili asosida uzatishga intilsa, Xitoy va O‘zbekiston internet jurnalistlari voqea-hodisalarni ko‘proq hissiy asosda talqin etadi.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari asosida, har uch mamlakat onlayn nashrlaridagi “Madaniyat” ruknlari o‘rganildi:

Joriy yilning 6-fevralida O‘zbekiston onlayn “xs.uz” nashri soat 12:06 da “O‘zbekistonda “Yoshlar va kino” shiori ostida O‘zbek milliy filmlari festivali o‘tkaziladi”, deb xabar qiladi. Unda aytilishicha, festival doirasida Agentlik buyurtmasiga binoan so‘nggi yillarda yaratilgan eng sara milliy filmlar Respublika miqyosida bepul namoyish etiladi. Shuningdek, namoyishlar davomida film ijodkorlari bilan ijodiy uchrashuvlar ham o‘tkaziladi degan qisqa axborot berilgan.

“The Guardian” onlayn nashri esa shu sanada “Oskarning eng yaxshi original qo‘shiq g‘oliblari reytingi!” nomli xabarni taqdim etadi. Unda “Oskar” mukofotiga sazovor bo‘lgan original qo‘shiqlarni tanlash mushkul vazifa ekanligi aytiladi. Chunki g‘oliblar to‘qqiz yilni qamrab olgan 18 ta janr asosida tanlab olinadi. Aytish joizki, o‘quvchi mazkur reytingni boshdan oxirigacha ko‘rishi uchun xabar aynan 40-pog‘onadan boshlangan. Birinchi o‘rin g‘olibi yoki g‘olibasi kimligini bilishni istsgan kishi xabarni oxirigacha o‘qishga majbur. Shuningdek, tarmoq foydalanuvchisi nafaqat uzun matn, balki fotoreportajni ko‘rib baholash imkoniyatiga ham ega [<https://www.theguardian.com/culture/2020/feb/06/oscars-best-original-song-winners-ranked>].

Bizningcha, Buyuk Britaniyaning “The Guardian” onlayn nashri taqdim etgan reyting natijalari oxiridan oldinga teskari piramida formatidagi fotoreportaj jamlanmasi bilan boyitilishi diqqatga sazovor. Birinchi uchtalik g‘olibini aniqlash uchun maqolani oxirigacha o‘qish zarur. Bu ham tahririyat ijodkorlarining materialni taqdim etishdagi mahoratidan dalolat qiladi.

2020-yil 26-mart sanasi soat 13:42 da “Madaniyat” bo‘limining “Musiqia festivallari” kichik ruknida “Yuklab olish va Wight oroli festivallari koronavirus tufayli bekor qilindi” [<https://www.theguardian.com/music/2020/mar/26/download-and-isle-of-wight-festivals-cancelled-due-to-coronavirus>] xabari kelitiriladi. Mazkur xabar katta hajmli fotosurat hamda xabarning tafsilotini qamrab olgan. Xuddi shunga o‘xshash xabar 2020-yilning 13-martida soat 17:39 da “xs.uz” onlayn nashrida “O‘zbekistonda xavfsizlik nuqtayi nazaridan bir qator mahalliy va xalqaro darajadagi tadbirlar bekor qilinmoqda” deb beriladi. “The Guardian” kabi “xs.uz”da ham xabar haqida ma’lumot va katta fotosurat joylangan. Xitoyning “Jenmin jibao” onlayn nashrining ham aynan 2020-yilning 13-mart sanasida soat 17:06 da “Epidemiya avj olgan bir paytda Xitoyning madaniy maskanlari internet orqali namoyish etilmoqda” deb nomlangan xabari infografika va axborot janridan foydalanilganligini ko‘rsatadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, uchala nashr bevosita madaniyat yangiliklarini taqdim etishda axborot, intervyu janrlaridan keng foydalanadi. Masalan, “xs.uz”ning

“Sen bahorni sog‘inmadingmi?” [<http://xs.uz/uzkr/post/sen-bahorni-soginmadingmi>] O‘zbekiston xalq shoirasi O.Hojieva bilan suhbat (17.02.2020), “Ohu+arava=teatr. Sharof Boshbekov bilan suhbat” [<http://xs.uz/uzkr/post/ohuarava-teatr-sharof-boshbekov-bilan-suhbat>] (13.01.2020), “The Scorpion from the Altar. Yoxud ‘Mehrobdan chayon’ romani ingliz tiliga qanday o‘girildi? Tarjimon bilan suhbat” [<http://xs.uz/uzkr/post/the-scorpion-from-the-altar-yokhud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qandaj-ogirildi-tarzhimon-bilan-suhbat>] shular jumlasidandir.

“Jenmin jibao” (People’s Daily Online) onlayn nashridagi madaniyat rukni matnlarida asosan xabar janri ustunlik qiladi. Yana bir farqli jihati – muayyan xabarni taqdim etishda uning (xabar) mazmunini aks ettiruvchi fotosurat joylanadi. Masalan, 2020-yil 9-fevral soat 15:02 da “San Pauluda Xitoy lampalar festivali nishonlandi” [<http://en.people.cn/n3/2020/0209/c90000-9655804-2.html>] mavzusidagi xabar fotoreportaji ketma-ketlikda to‘rt sahifaga joylangan. Rasmlar ostida ular mazmunini ifodalovchi yozuvlar ham mavjud. Shunigdek, onlayn nashr joriy yilning 24-yanvar sanasi soat 15:31 da “Nyu-Yorkdagi Gudzon daryosi tepasida Xitoyning Oy hisobidagi yangi yilni nishonlash uchun mushaklar” foto jamlanmasi 7 ta rasmni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, shu yilning 27-yanvarida soat 16:15 da “Londonda Xitoyning yangi yil paradi” [<http://en.people.cn/n3/2020/0127/c90000-9652054.html>] xabari ham 13 ta rasmlari fotoreportaj jamlanmasini taqdim etadi.

Xitoydan farqli ravishda shu yilning 27-martida soat 15:01 da Britaniyaning “The Guardian” onlayn nashri “Madaniyat” rukni tarkbidagi “Musiqqa” kichik ruknida “Barcha Points East, Parklife va Lovebox festivallari koronavirus tufayli bekor qilinadi” [<https://www.theguardian.com/music/2020/mar/27/all-points-east-parklife-and-lovebox-festivals-cancel-due-to-coronavirus>] deb xabar qiladi. Ushbu xabar yorqin foto hamda uni tavsiflovchi ma’lumotlar o‘quvchiga havola etiladi. Aytish kerakki, Britaniya nashri madaniyat sohasiga tegishli bo‘lgan, musiqqa, kino, teatr, fotosuratlar, rasm va video ruknlarini muntazam yoritadi. Ba’zi xabarlar infografika va axborotga asoslangan bo‘lsa (London reydidagi o‘g‘irlangan Djeys Bond qurollar kolleksiyasi) [<https://www.theguardian.com/film/2020/mar/27/james-bond-prop-guns-collection-stolen-london-walther-ppk-magnum>], ba’zilarida fotoreportaj jamlanmasi (Afrika rassomlari va diasporalar – suratlarida) [<https://www.theguardian.com/culture/gallery/2020/mar/27/artists-of-africa-and-the-diaspora-in-pictures#img-4>] yohud video (Dua Lipa: haqiqiy pop tassavurida kelajak nostalgiyasi tahlili) [<https://www.theguardian.com/music/2020/mar/27/dua-lipa-future-nostalgia-review>] yuklangan bo‘ladi.

XULOSA

Birinchiidan, digitallasuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti jurnalistning ijod laboratoriyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu esa, jurnalistning kasb malakasi va ko‘nikmasida universallasuv va ixtisoslashuvning shakllanishiga olib keldi.

Ikkinchiidan, rus nazariyotchilari jurnalistlarning ijod laboratoriyasida yangi jurnalistik kompetensiyalar shakllanganini, shu bilan birga yaqin o‘n yillikda kelajak kommunikatorlari xususida o‘z fikr-mulohazalarini qayd etgan bo‘lsalar, o‘zbek

olimlari hozirgi jurnalistlardan universallashtirish va ixtisoslashuv zaruratiga ehtiyoj mavjudligini e'tirof etmoqdalar.

Uchinchi, O'zbekiston, Xitoy va Buyuk Britaniya bosh nashrlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, har uch onlayn nashr jamiyatning madaniy yangiliklari, dunyoda kechayotgan so'nggi madaniy o'zgarishlar dinamikasini yorituvchi "Madaniyat" rukni mavjudligi aniqlandi. O'zbekistonning "xs.uz" onlayn nashri axborot, intervyu hamda qisqa axborot janrlarida madaniyatga oid barcha yangiliklarni muntazam taqdim etib boradi. Foydalanuvchida avvalgi xabarlariga biriktirilgan foto va video materiallarni arxiv orqali o'qish, ularga izohlar qoldirish imkoniyati ham mavjudligi aniqlandi.

To'rtinchidan, Xitoyning "Jenmin jibao" (People's Daily Online) onlayn nashri ma'lumotlarni 9 tilda taqdim etadi. Madaniyatga oid yangiliklar ko'proq axborot janrida. Ba'zilarida foto va video materiallar ham joylangan. Foto reportajni esa ko'p uchratish mumkin.

Beshinchidan, Buyuk Britaniyaning "The Guardian" onlayn nashri o'zining ko'p yillik tajribasi bilan farq qiladi. Dunyo bo'yicha ko'p o'qiladigan gazetalar bo'yicha uchinchi o'rinni egallayotgan ushbu nashr jurnalistlarning ijodiy mahorati, saytning jonli ko'rinishi, ko'plab tahliliy va tanqidiy materiallari, foto va video ilovalarga boyligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2020 Gala concert for Chinese New Year held in Vienna. (2020, February 6). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0206/c90000-9654988.html>.
2. Alekseenko, D.I. (2014). Osobennosti professional'noj deyatel'nosti zhurnalista informacionnogo agentstva v rabote s ekonomicheskoy informaciej. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Yerevan.
3. All Points East, Parklife and Lovebox festivals cancel due to coronavirus. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/music/2020/mar/27/all-points-east-parklife-and-lovebox-festivals-cancel-due-to-coronavirus>.
4. Artists of Africa and the diaspora – in pictures. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/culture/gallery/2020/mar/27/artists-of-africa-and-the-diaspora-in-pictures#img-4>.
5. Baranova, Y.A. (2017). Novye zhurnalistskie kompetencii v usloviyah mediakonvergencii: mify i real'nost'. *Vestnik Rossiyskogo universiteta druzhby narodov*, 22(1), 179–180.
6. Chinese Lantern Festival celebrated in Sao Paulo. (2020, September 9). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0209/c90000-9655804-2.html>
7. Chinese Lunar New Year parade held in London. (2020, January 27). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0127/c90000-9652054.html>
8. Download and Isle of Wight festivals cancelled due to coronavirus. (2020, March 26). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/music/2020/mar/26/download-and-isle-of-wight-festivals-cancelled-due-to-coronavirus>
9. Fayziev, O. (2018, 15-noyabr). Xitoy matbuoti taraqqiyotining siri nimada? "Xalq so'zi" onlayn gazetasi. <http://xs.uz/uzkr/post/khitoj-matbuoti-taraqqiyotining-siri-nimada>.
10. Fireworks seen above Hudson River in New York to celebrate Chinese Lunar New Year. (2020, January 24). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0124/c90000-9651672.html>.
11. James Bond gun collection stolen in London raid. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/film/2020/mar/27/james-bond-prop-guns-collection-stolen-london>

- walther-ppk-magnum.
12. Kasimova, N. (2019). *Onlayn zhurnalistika*. Tashkent.
 13. Kopylov, O.V. (2013). Osobennosti tvorcheskoj deyatel'nosti zhurnalista v usloviyah mediakonvergencii. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Yekaterinburg.
 14. Kopylov, O.V. (2012). Professionalizm zhurnalista v usloviyah mediakonvergencii: transformaciya, evolyuciya, apgrejd? *Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta*, 3(19), 124–125.
 15. Kopylov, O.V. (2012). Osobennosti tvorcheskoj deyatel'nosti zhurnalista v usloviyah mediakonvergencii. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Barnaul.
 16. Lazutina, G.V. (2011). *Zhanry zhurnalistskogo tvorchestva*. Moskva.
 17. Lukyanova, T.I. (2018, fevral). UGC i zhurnalistika v izdanii Gardian. *Vek informacii*. <https://age-info.com/2018/02/ugc-и-журналистика-в-издании-гэрдиян-the-guardian/>.
 18. Nigmatullina, K. (2020). Trebuyutsya sverhcheloveki: zhurnalist (?) sleduyushchego desyatiletiya – kakoj on. Tsifrovoy zhurnal “*Jurnalist*”, 2. <https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-2-2020>.
 19. Ohu+arava=teatr (Sharof Boshbekov bilan suhbat). (2020, 13-yanvar). “*Xalq so‘zi*” onlayn gazetasi. <http://xs.uz/uzkr/post/ohuarava-teatr-sharof-boshbekov-bilan-suhbat>.
 20. Oscars best original song winners – ranked. (2020, February 6). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/culture/2020/feb/06/oscars-best-original-song-winners-ranked>
 21. Prohorov, E.P. (2012). *Vvedenie v teoriyu zhurnalistiki*. Moskva.
 22. Pulya, V. (2019). *Kak seti 5G povliyayut na mediarynok*. Tsifrovoy zhurnal “*Jurnalist*”, 6. <https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-06-2019>.
 23. Samotkan, K. (2022, 27 yanvarya). Chto takoe UGC: osobennosti, tipy i sposoby primeneniya pol'zovatel'skogo kontenta. Blog “*TexTerra*”. <https://texterra.ru/blog/chto-takoe-ugc-osobennosti-tipy-i-sposoby-primeneniya.html>.
 24. Svitich, L. (2019). Zhurnalist v usloviyah mediakonvergencii. Zhurnal “*Multimedia*”, 4(2), 46-52.
 25. The Scorpion from the Altar yohud “Mehrobdan chayon” romani ingliz tiliga qanday ogirildi? (Tarjimon bilan suhbat). (2019, 17-dekabr). “*Xalq so‘zi*” onlayn gazetasi. <http://xs.uz/uzkr/post/the-scorpion-from-the-altar-yokhud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qandaj-ogirildi-tarzhimon-bilan-suhbat>.
 26. Umirova, A. (2019, 17-dekabr). Sen bahorni sog'inmadingmi? “*Xalq so‘zi*” onlayn gazetasi. <http://xs.uz/uzkr/post/sen-bahorni-soginmadingmi>.
 27. O‘zbekistonda “Yoshlar va kino” shiori ostida O‘zbek milliy filmlari festivali o‘tkaziladi. (2020, 6-fevral). “*Xalq so‘zi*” onlayn gazetasi. <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-yoshlar-va-kino-shiori-ostida-ozbek-millij-filmlari-festivali-otkaziladi>.
 28. https://inosmi.ru/guardian_co_uk/.

REFERENCES

1. 2020 Gala concert for Chinese New Year held in Vienna. (2020, February 6). *People’s Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0206/c90000-9654988.html>.
2. A festival of Uzbek national films will be held in Uzbekistan under the slogan “Youth and cinema”. (2020, February 6). “*People’s Word*” Online Newspaper. <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-yoshlar-va-kino-shiori-ostida-ozbek-millij-filmlari-festivali-otkaziladi>.
3. Alekseenko, D.I. (2014). Features of the professional activity of a news agency journalist in working with economic information. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Yerevan.
4. All Points East, Parklife and Lovebox festivals cancel due to coronavirus. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/music/2020/mar/27/all-points-east-parklife-and-lovebox-festivals-cancel-due-to-coronavirus>.
5. Artists of Africa and the diaspora – in pictures. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/culture/gallery/2020/mar/27/artists-of-africa-and-the-diaspora-in-pictures#img-4>.

6. Baranova, Y.A. (2017). New journalistic competencies in conditions of media convergence: myths and reality. *Bulletin of the Peoples' Friendship University of Russia*, 22(1), 179–180.
7. Chinese Lantern Festival celebrated in Sao Paulo. (2020, September 9). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0209/c90000-9655804-2.html>
8. Chinese Lunar New Year parade held in London. (2020, January 27). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0127/c90000-9652054.html>
9. Deer+cart=theatre (interview with Sharof Boshbekov). (2020, January 13). “*People's Word*” Online Newspaper. <http://xs.uz/uzkr/post/ohuarava-teatr-sharof-boshbekov-bilan-suhbat>.
10. Download and Isle of Wight festivals cancelled due to coronavirus. (2020, March 26). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/music/2020/mar/26/download-and-isle-of-wight-festivals-cancelled-due-to-coronavirus>
11. Fayziev, O. (2018, November 15). What is the secret of China's press development? “*People's Word*” Online Newspaper. <http://xs.uz/uzkr/post/khitoj-matbuoti-taraqqiyotining-siri-nimada>.
12. Fireworks seen above Hudson River in New York to celebrate Chinese Lunar New Year. (2020, January 24). *People's Daily Online*. <http://en.people.cn/n3/2020/0124/c90000-9651672.html>.
13. James Bond gun collection stolen in London raid. (2020, March 27). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/film/2020/mar/27/james-bond-prop-guns-collection-stolen-london-walther-ppk-magnum>.
14. Kasimova, N. (2019). *Online journalism*. Tashkent.
15. Kopylov, O.V. (2012). Features of the creative activity of a journalist in conditions of media convergence. *Abs. diss. cand. philol. scien.* Barnaul.
16. Kopylov, O.V. (2012). Professionalism of a journalist in conditions of media convergence: transformation, evolution, upgrade? *Bulletin of Tomsk State University*, 3(19), 124–125.
17. Kopylov, O.V. (2013). Features of the creative activity of a journalist in conditions of media convergence. *Abs. diss. cand. philol. scien.* Ekaterinburg.
18. Lazutina, G.V. (2011). *Genres of journalistic creativity*. Moscow.
19. Lukyanova, T.I. (2018, February). UGS and journalism in the Guardian. *Age of Information*. <https://age-info.com/2018/02/ugc-и-журналистика-в-издании-гардиан-the-guardian/>.
20. Nigmatullina, K. (2020). Supermen required: journalist (?) of the next decade - what is he like? Digital magazine “*Journalist*”, 2. <https://jrnlst.ru/zhurnalst-no-2-2020>.
21. Oscars best original song winners – ranked. (2020, February 6). *The Guardian*. <https://www.theguardian.com/culture/2020/feb/06/oscars-best-original-song-winners-ranked>
22. Prohorov, E.P. (2012). *Introduction to the theory of journalism*. Moscow.
23. Pulya, V. (2019). How 5G networks will affect the media market. Digital magazine “*Journalist*”, 6. <https://jrnlst.ru/zhurnalst-no-06-2019>.
24. Samotkan, K. (2022, January 27). What is UGS: features, types and methods of using user content. “*TexTerra*” Blog. <https://texterra.ru/blog/chto-takoe-ugc-osobennosti-tipy-i-sposoby-primeneniya.html>.
25. Svitich, L. (2019). Journalist in conditions of media convergence. *Journal of Multimedia*, 4(2), 46-52.
26. The Scorpion from the Altar or how was this novel translated into English? (Conversation with an interpreter). (2019, December 17). “*People's Word*” Online Newspaper. <http://xs.uz/uzkr/post/the-scorpion-from-the-altar-yokhud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qandaj-ogirildi-tarzhimon-bilan-suhbat>.
27. Umirova, A. (2019, December 17). Didn't you miss spring? “*People's Word*” Online Newspaper. <http://xs.uz/uzkr/post/sen-bahorni-soginmadingmi>.
28. https://inosmi.ru/guardian_co_uk/.